



Times Higher Education  
Impact Rankings



WORLD  
UNIVERSITY  
RANKINGS  
ASIA 2025



BUXORO  
DAVLAT  
1930 UNIVERSITETI

# “JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”

mavzusidagi xalqaro  
ilmiy-amaliy konferensiya

## MATERIALLARI

# I



9-10-sentabr  
2025-yil

Buxoro - 2025



 BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETI

1930

*yil*



BUKHARA  
STATE  
UNIVERSITY

 @buxdu\_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

Tel.: (65) 221-29-14  
Faks: (65) 221-27-07

E-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)  
Manzil: Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY  
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ  
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ  
БУДУЩЕЕ”**

**Международная научно-практическая конференция**

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH  
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT  
FUTURE”**

**International Scientific and Practical Conference**

**Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil**

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talabai-yoshlarga mo'ljallangan.

#### **Mas'ul muharrir:**

**O.X.Xamidov**, Buxoro davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

#### **Tahrir hay'ati va a'zolari :**

- K.A.Samiyev** – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
- D.Sh.Yavmutov** – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
- O'U. Rashidov** – Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
- A.T.Jurayev** – Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
- R.G'. Jumayev** – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
- O.S.Qahhorov** – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
- G.T. Zaripov** – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
- N.I. Gaybullayeva** – BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
- N.Z. Sayfullayeva** – Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
- M.Sh. Shirinova** – Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
- A.A. Amonov** – Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
- Z.S. Nurov** – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
- B.I. Adizov** – Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
- M.Z. Husenov** – Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
- D.Z. Rajabov** – O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.d., professor,
- A.H. Hamrayev** – BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
- O.O. Jalolov** – Matbuot kotibi

#### **To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

- N.Z. Sayfullayeva** – Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
- M.Sh. Shirinova** – Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent  
BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya yo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

**Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.**

require minimal watering, and are adapted to the saline soils of the region. Species such as catalpa, gleditsia, privet, and ornamental forms of pomegranate are being actively introduced. Their use enhances the aesthetic appearance of the city and reduces the strain on water resources. In addition, the Department of Biology at BukhSU is conducting research by Professor Esanov Kh.K. in the field of plant taxonomy, Gafarova S.M. in the field of plant biodiversity and plant diversity, Umedov A.M. in the field of urban flora diversity, and Professor Holliiev A.E. in the field of plant stress resistance to various soil environments in the Bukhara Oasis.

Ecotourism. Ecotourism is developing in parallel with cultural and educational tourism. New routes include visits to botanical gardens, green areas, nurseries of ornamental plants, demonstration gardens, and eco-objects. Educational initiatives include the organization of Green City festivals, workshops on sustainable design and urban greening [5], [6].

#### Conclusion

The experience of Bukhara shows that the integration of green economy, tourism, and scientific research on the acclimatization of ornamental plants can become the basis for sustainable development of the city. This increases the tourist appeal and improves the environmental situation, creating a comfortable environment for residents and visitors.

#### References:

1. Наршахи, Абу Бакр Мухаммад ибн Джафар. История Бухары. — Ташкент: Фан, 1991.
2. UNESCO. (1993). Historic Centre of Bukhara. Официальный сайт Всемирного наследия. <https://whc.unesco.org/en/list/602/>
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года № ПК-436 «О мерах по реализации стратегии перехода Республики Узбекистан к “зелёной” экономике в период 2019–2030 годов». <https://lex.uz/docs/6280383>
4. Государственный комитет Республики Узбекистан по развитию туризма. Туризм в Узбекистане: статистические данные 2019–2024 гг. <https://uzbektourism.uz>
5. Uza.uz — Национальное информационное агентство Узбекистана. Туризм в Бухаре и зелёная экономика. <https://uza.uz>
6. Бухарский государственный университет. Научные исследования по акклиматизации декоративных растений. <https://buxdu.uz>

### DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Uzaqov Jamshid Norboyevich*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Dotsent, i.f.f.d., (PhD)*

[jamshiduzokov0660@gmail.com](mailto:jamshiduzokov0660@gmail.com)

*Qulmurotov Sohijon Jumaniozovich*

*katta o'qituvchi*

[sohibkulmurotov@gmail.com](mailto:sohibkulmurotov@gmail.com).

**Annotatsiya:** Maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarining o'rni va ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda DXSH asosida ziyorat joylarida infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xususiy sektorni faol jalb etishning institutsional asoslari yoritilgan. Mamlakatda mavjud DXSH amaliyoti tahlil qilinib, ularning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida ziyorat turizmi sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilg'or yondashuvlar taklif etilgan. O'zbekiston sharoitida ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy va takomillashtirilgan mexanizmlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, davlat-xususiy sheriklik (DXSH), turizm infratuzilmasi, investitsiya muhiti, xususiy sektor ishtiroki, turizmni rivojlantirish strategiyasi, xalqaro tajriba, hamkorlik mexanizmlari, barqaror rivojlanish, O'zbekiston turizm siyosati.

**Kirish.** Jahonning rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiyotning jadal va barqaror o'sishini ta'minlashda turizm sohasidan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Xalqaro miqyosdagi raqobat jarayonlarining keskinlashuvi, pandemiya va global darajadagi beqarorlik sohada jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. "2020-yilda xalqaro turizm 72 foizgacha pasayib, 2019-yildagiga qaraganda dunyo mamlakatlarida 900 mln. sayyohlar kam qabul qilgan yoki 935 mlrd. AQSH dollari miqdorida turizm

eksporti daromadlari pasayganini kuzatish mumkin. Bunday pasayish Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 82 foizni, Yaqin Sharqda 73 foizni va Afrikada 69 foizni tashkil etgan”<sup>92</sup>. Turizm rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, turistik salohiyatdan samarali foydalanish, sohadagi muammolarni hal etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston turizm sohasida jadal islohotlar amalga oshirib, xalqaro maydonda o‘zining tarixiy-madaniy merosi, boy an‘analari va diniy-ma‘naviy qadriyatlari bilan e‘tiborni tortmoqda. Turizmning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan **ziyorat turizmi** mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy kabi buyuk allomalarimiz maqbaralari, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Qarshi kabi tarixiy shaharlardagi ziyorat maskanlari xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Biroq mavjud ziyorat maskanlari infratuzilmasi, servis xizmatlari sifati va marketing darajasi jahon standartlariga to‘liq javob bermaydi. Ayrim maskanlarda turistik xizmatlar tizimi rivojlanmagan, xorijiy turistlar uchun qulayliklar yetarli darajada yaratilmagan. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini samarali qo‘llash ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifati oshirish va investitsiya jalb etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

DXSh modeli davlat va xususiy sektorning resurslari, tajribasi va imkoniyatlarini birlashtirish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ziyorat maskanlarining madaniy va ma‘naviy ahamiyatini ham oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribadan ma‘lumki, DXSh orqali ziyorat turizmini rivojlantirish orqali katta yutuqlarga erishilgan. O‘zbekiston uchun ham ushbu modelni milliy sharoitga mos holda takomillashtirish, huquqiy asoslarni mustahkamlash, moliyaviy va boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb vazifadir. Shu bois, ushbu tadqiqotda ziyorat turizmini rivojlantirishda DXSh mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi, milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi, xususan, ziyorat turizmi milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, huquqiy-hujjatlar va dasturlar asosida ziyorat joylarining infratuzilmasi rivojlantirilmoqda, xorijiy va mahalliy ziyoratchilarga qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik — davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini takomillashtirish orqali turizm xizmatlarining sifati va qamrovini oshirish, investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda DXSHning umumiy qonunchilik bazasi mavjud bo‘lsa-da, aynan ziyorat turizmi sohasida bu mexanizmlarning samaradorligi va qo‘llanilish amaliyoti hanuz yetarli darajada shakllanmagan.

Biz ushbu tadqiqotda aynan ziyorat turizmi yo‘nalishida DXSH mexanizmlarining hozirgi holatini tahlil qildik, qolaversa mavjud muammolarni aniqladik va samarali faoliyatni ta‘minlovchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sharoitiga mos bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni asosladik.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Birinchidan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tushunchasiga oid mutaxassislar qarashlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Ya‘ni, xalqaro miqyosda keng qo‘llanilayotgan hamda umumiy mazmuniga yaqin bo‘lgan ta‘riflarni keltirish zarur. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bugungi kunda turli sohalarda, xususan turizmda ham samarali boshqaruv va resurslardan oqilona foydalanish vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tushuncha bo‘yicha turli olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muammosining nazariy jihatlarini, jumladan, turizm sohasiga olimlar — V.I. Azar, M.B. Birjakov, Yu.V. Bloxin, V.F. Bogachyov, V.S. Bogolyubov, M.A. Gorenburgov, V.Ya. Gorfinkel, A.B. Zdorov, M.I. Lapusta, G.A. Karpova, V.A. Kvartalnov, A.T. Kirillov, Yu.V. Kuznetsov, A.B. Krutik, V.A. Morozov, M.A. Morozov, V.P. Popkov, hamda xorijiy olimlar — D. Buxalis, P. Druker, F. Kotler, M. Porter, Y. Shumpeter, A. Xosking, S. Vankxill, D. Fletcher, K. Kuper va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlanmalarida tadqiq etilgan.<sup>93</sup>

DXShni turizm sohasida rivojlantirishga qaratilgan aniq davlat siyosati mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida “ziyorat turizmi yo‘nalishi orqali mamlakatga turistlar oqimini oshirish bo‘yicha kompleks vazifalar belgilangan. Xususan,

<sup>92</sup> <https://www.dailynewsegypt.com/2020/12/22/international-arrivals-fall-72-in-10m-2020-unwto>

<sup>93</sup> Коль О.Д., Сутьрин Н.М., Знаменская КН. Регулирование предпринимательской деятельности на уровне административного района

Indoneziya va boshqa yirik musulmon aholiga ega davlatlardan doimiy aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish maqsadida aviakompaniyalarni jalb etish, tegishli xalqaro kelishuvlarni tezkorlik bilan amalga oshirish, infratuzilma va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda ziyorat maskanlarida zamonaviy turistik sharoitlarni yaratish kabi masalalarni hal etish" belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **Farmoni**da "madaniy meros obyektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida samarali boshqarish hamda mazkur sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, madaniy meros obyektlarining o'ziga xos xususiyatini inobatga olib, ularga har qanday salbiy ta'sirlarni oldini olish, uzluksiz ravishda davlat va ilmiy-texnik nazorat olib borishni nazarda tutgan holda sohada davlat-xususiy sheriklikni joriy etish tartibi, sport obyektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida samarali boshqarish hamda mazkur sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish" kabi aniq mexanizmlar belgilangan. Bu esa DXSh modelining mamlakatimizda ham strategik vosita sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda DXSh mexanizmlarini turizm sohasiga, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirishga tatbiq etish masalasi ilmiy doiralarda ham e'tiborga olinmoqda. Masalan, Uzakov J.N. (2025) o'z tadqiqotida ziyorat maskanlarini DXSh asosida boshqarish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlar va marketingni kuchaytirish bo'yicha takliflar bildirgan (Uzakov, 2025).<sup>94</sup>

UNWTOning "Policy and Practice for Global Tourism" qo'llanmasida davlat va xususiy sektor hamkorligini samarali yo'lga qo'yish uchun ochiq muloqot mexanizmlarini yaratish, turizm sohasida rejalashtirish va boshqaruv jarayonlariga ikki sektorni teng ishtirokchi sifatida jalb etish zarurligi ta'kidlanadi (UNWTO, 2015).<sup>95</sup>

Shuningdek, De Matteis (2021) tomonidan "Accessible Tourism in Marine Protected Areas" nomli ilmiy maqolada DXSh asosida ijtimoiy inklyuziv turizmni rivojlantirish yondashuvlari, jumladan, turistik xizmatlarni nogironligi bo'lgan shaxslar va barcha ijtimoiy guruhlar uchun moslashtirish usullari tahlil qilingan. Mazkur yondashuv ziyorat turizmi sohasida ham qo'llanishi mumkin, chunki u xizmatlarning sifat va qamrovini kengaytiradi (De Matteis et al., 2021).<sup>96</sup>

**Metodologiya.** Tadqiqotda ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishga doir masalalar tizimli va har tomonlama tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Ish davomida tizimli tahlil, solishtirma tahlil, amaliy kuzatuvlar va statistik ma'lumotlarga tayangan baholash usullaridan foydalanildi. Xorijiy tajriba misollarini o'rganish orqali ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, mavjud qonun hujjatlari tahlil qilinib, ular asosida "**Ziyorat + DXSh**" modelini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Muhokama.** Ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini takomillashtirish masalasi nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo miqyosida ham dolzarb bo'lib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasiga, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan yirik infratuzilma loyihalari, transport-logistika tizimini yaxshilash, zamonaviy mehmonxona va servis obyektlarini qurish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Biroq mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, xususiy sektorni faol jalb qilish va investorlar uchun barqaror hamda kafolatli sharoit yaratish borasida hali to'liq ijobiy natijaga erishilgani yo'q.

Muhokama jarayonida aniqlangan asosiy masalalardan biri – DXSh loyihalarida huquqiy va institutsional mexanizmlarning yetarli darajada mukammal emasligidir. Ayni paytda mavjud qonunchilik DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun umumiy tartiblarni belgilab bergan bo'lsa-da, ziyorat turizmi kabi ixtisoslashgan yo'nalishlarga xos bo'lgan xususiy shartlar va talablar yetarlicha yoritilmagan. Natijada, ayrim investorlar loyihalarning uzoq muddatli moliyaviy samaradorligini baholashda qiyinchilikka duch kelmoqda.

**Natijalar va tahlil.** Raqamlar asosida faktlarga tayansak, so'nggi yillarda O'zbekistonda ziyorat turizmi yo'nalishida turistlar oqimining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. 2023-yilda xorijiy davlatlardan O'zbekistonga jami 6,6 million nafar sayyoh tashrif buyurdi.

Xususan, qo'shni davlatlardan o'tgan yili jami 4 364,8 ming nafar turist tashrif buyurdi va bu 2022-yilga nisbatan 283 foizga ko'pdir. Shuningdek, qolgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlaridan 606,4 ming nafar (2022-yilga nisbatan 291 foizga ko'p), uzoq xorij mamlakatlaridan 261,6 ming nafar (2022-yilga nisbatan 198 foizga ortiq) turist yurtimizga keldi.

<sup>94</sup> <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/1016>

<sup>95</sup> [https://www.academia.edu/29726146/Global\\_Report\\_on\\_Public\\_Private\\_Partnerships\\_Tourism\\_Development](https://www.academia.edu/29726146/Global_Report_on_Public_Private_Partnerships_Tourism_Development)

<sup>96</sup> [https://www.academia.edu/29726146/Global\\_Report\\_on\\_Public\\_Private\\_Partnerships\\_Tourism\\_Development](https://www.academia.edu/29726146/Global_Report_on_Public_Private_Partnerships_Tourism_Development)

Jumladan, Turkiyadan 75,5 ming (2022-yilga nisbatan 171 foizga ko‘p), Janubiy Koreyadan 19,9 ming (2022-yilga nisbatan 347 foizga ko‘p), Germaniyadan 17,7 ming (2022-yilga nisbatan 257 foizga ko‘p), AQSHdan 13,1 ming (2022-yilga nisbatan 242 foizga ko‘p), Fransiyadan 11 ming (2022-yilga nisbatan 372 foizga ko‘p) hamda Buyuk Britaniyadan 10,5 ming (2022-yilga nisbatan 264 foizga ko‘p) turist yurtimizni ziyorat qildi.

**1-Jadval. 2023-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, mamlakatlar va yosh toifalari bo‘yicha taqsimoti hamda o‘shish sur‘atlari**

Yo‘nalish	Turistlar soni (ming nafar)	2022-yilga nisbatan o‘shish (%)
Jami xorijiy sayyohlar	6 600,0	—
Qo‘shni davlatlar	4 364,8	283
Boshqa MDH davlatlari	606,4	291
Uzoq xorij davlatlari	261,6	198
— Turkiya	75,5	171
— Janubiy Koreya	19,9	347
— Germaniya	17,7	257
— AQSH	13,1	242
— Fransiya	11,0	372
— Buyuk Britaniya	10,5	264
Yosh bo‘yicha taqsimot		
18 yoshgacha	723,3	—
19–30 yosh	846,5	—
31–55 yosh	~3 276,0 (49,6%)	—
50 yoshdan oshgan	1 069,6	—

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 2023-yilda mamlakatimizga kelgan turistlarning 49,6 fozini 31 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan kishilar tashkil qilgan. Shuningdek, xorijlik turistlarning 723,3 ming nafari - 18 yoshgacha bo‘lganlar, 846,5 ming nafari – 19 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar hamda 1 069,6 ming nafari 50 yoshdan oshgan kishilar bo‘ldi.<sup>97</sup>

Statistika agentligi hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda 8,2 million nafar xorijiy fuqarolar turizm maqsadida O‘zbekistonga tashrif buyurgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yildagi 6,6 million nafarga nisbatan 1,6 million kishiga ko‘pdir.<sup>98</sup>

Ushbu o‘shishning muhim omillaridan biri sifatida mamlakatdagi ziyorat turizmi salohiyatining yuqoriligi va diniy-ma’naviy obidalarining jozibadorligi e’tirof etilishi mumkin. O‘zbekiston hududida joylashgan Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy kabi xalqaro miqyosda tanilgan ziyorat maskanlari nafaqat musulmon olami, balki turli konfessiya vakillarining ham qiziqishini orttirmoqda.

Shu bois, umumiy turistlar oqimida ziyorat maqsadida kelgan sayyohlar salmog‘i sezilarli bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bu holat, bir tomondan, ziyorat turizmining milliy turizm strategiyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ushbu segmentga qaratilgan infratuzilma, servis va transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, xalqaro miqyosda diniy turizm bozorida kuchli raqobat sharoitida O‘zbekistonning boy madaniy merosi va diniy obidalari mamlakat brendini mustahkamlashda asosiy “drayver” bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, statistik ko‘rsatkichlar


<sup>97</sup> <https://uzbekistan.travel/en/uzbekistan-tourist-arrivals>

<sup>98</sup> <https://www.kun.uz/en/news/2025/02/03/82-million-tourists-visited-uzbekistan-in-2024>

ziyorat turizmini rivojlantirish strategiyalarini ilmiy asoslash va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ushbu yo‘nalishda keng qo‘llash zaruriyatini yanada kuchaytiradi.

Hozirgi kunga qadar O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yoki umuman turistlar tashrif buyurmagan ko‘plab ziyorat maskanlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati davlat tasarrufida bo‘lishiga qaramay, samarali ishlatilmayapti. Xususiy sektor imkoniyatlari to‘liq jalb qilinmaganligi sababli, ayrim maskanlarda turistik infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan, xizmat sifati past, marketing faoliyati esa deyarli olib borilmaydi.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ziyorat maskanlarini mulk huquqisiz xususiy sektor boshqaruviga berish mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi. Bu model DXShning “amaliy (operatsion) sheriklik” shakliga kiradi, ya’ni davlat mulkni saqlab qoladi, ammo xususiy tadbirkor maskanlarni turistik xizmat ko‘rsatishga tayyorlaydi va boshqaradi.



**1-rasm. “Davlat-xususiy sheriklik asosida ziyorat turizmini rivojlantirish va ziyorat maskanlari salohiyatini oshirish mexanizmi”<sup>99</sup>**

**Amaliy (operatsion) sheriklik** — bu davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ning bir turi bo‘lib, unda xususiy sektor sherigi loyiha yoki obyektни boshqarish, texnik xizmat ko‘rsatish va kundalik operatsion faoliyatni yuritish majburiyatini oladi, davlat esa mulk huquqini saqlab qoladi.

Ushbu model ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmini qo‘llashning konseptual asoslarini ifodalaydi. Unda davlat va xususiy sektorning o‘ziga xos vazifalari aniq ajratilgan bo‘lib, ular o‘zaro hamkorlikda yagona maqsad — ziyorat maskanlarining salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida strategik va tartibga soluvchi vazifalarni bajaradi. Avvalo, ziyorat maskanlarining mulk huquqini saqlash orqali ularning davlat tasarrufida qolishini ta’minlaydi. Shuningdek, huquqiy asoslarni yaratish va ularning bajarilishini nazorat qilish orqali DXSh faoliyatining qonuniyligini kafolatlaydi. Daromad taqsimoti mexanizmlarini belgilab, manfaatlar muvozanatini saqlaydi. Infratuzilma va xavfsizlikni rivojlantirish esa turistlar uchun qulay sharoit yaratadi, madaniy va diniy talablarni saqlash esa maskanlarning tarixiy va ma’naviy qiyofasini asrab qoladi.

Xususiy sektor esa, asosan, operatsion va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida faoliyat yuritadi. Davlat bilan tuzilgan boshqaruv shartnomasidagi majburiyatlarni bajarish, investitsiya kiritish orqali ziyorat maskanlarini modernizatsiya qilish va xizmatlar turlarini kengaytirish uning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, servis va xizmatlarni rivojlantirish, marketing strategiyalarini amalga oshirish

99

hamda turistlarni faol jalb etish orqali turizm oqimini ko'paytiradi. Mahalliy aholiga yangi ish o'rinlari yaratish orqali esa hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi bunday hamkorlik "DXSh – Ziyorat turizmini rivojlantirish" markaziy tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuv orqali har ikki tomon o'z imkoniyatlarini birlashtiradi: davlat – huquqiy va infratuzilma qo'llab-quvvatlashi bilan, xususiy sektor esa – innovatsion xizmatlar, marketing va investitsiya bilan. Natijada, ziyorat maskanlarining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy salohiyati oshib, ularning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

**Xulosa.** Ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ikki tomonlama hamkorlik yondashuvi asosida shakllantrilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, birinchi tarkibiy qism sifatida, davlat zimmasiga ziyorat maskanlarini mulk huquqini saqlagan holda uzoq muddatli foydalanish shartlarini aniq belgilash, ularning huquqiy-me'yoriy bazasini ishlab chiqish hamda soha ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish vazifalari yuklanadi. Davlat, shuningdek, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektr va suv ta'minoti tizimlarini yaxshilash, yagona elektron axborot tizimi va onlayn bronlash platformasini yaratish, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, xalqaro miqyosda O'zbekistonning ziyorat turizmi brendini targ'ib etish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar va bojxona yengilliklari shaklida moliyaviy rag'batlar taqdim etish xususiy sektorni jalb etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi tarkibiy qism — xususiy sektor faoliyati, asosan, ziyorat maskanlarini restavratsiya qilish, ularni zamonaviy turistik xizmatlar bilan jihozlash, xavfsizlik standartlariga mos infratuzilmani yaratish hamda mehmonxonalar, restoranlar, savdo majmualari, transport xizmatlari va boshqa servis obyektlarini qurish va boshqarishga yo'naltiriladi. Xususiy tadbirkorlar innovatsion texnologiyalar — mobil ilovalar, 3D va VR ekskursiyalar, onlayn to'lov va bronlash tizimlarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Shu bilan birga, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash Shu bilan birga, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash orqali mintaqada bandlik darajasi oshiriladi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi va davlat byudjetiga qo'shimcha daromad manbalari yaratiladi. Natijada, hudud infratuzilmasi rivojlanishiga, xizmat ko'rsatish sifati va hajmining kengayishiga sharoit yaratiladi hamda pirovard natijada aholining turmush darajasi va farovonligi oshadi. Bundan tashqari, turizm sohasidan keladigan moliyaviy oqimlar mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishiga, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirishga, hududning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. ularni soha bo'yicha o'quv kurslariga jalb etish, xalqaro marketing kampaniyalarini amalga oshirish va turizm loyihalariga bevosita investitsiyalar kiritish xususiy sektorning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Mazkur ikki tomonlama mexanizm davlatning strategik boshqaruv salohiyatini va xususiy sektorning tashabbuskorlik imkoniyatlarini uyg'unlashtirib, ziyorat turizmining barqaror o'sishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu modelni joriy etish nafaqat mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, balki hududiy iqtisodiy faolligni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, DXSh mexanizmlarida quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish zarurligi qayd etildi:

➤ Ziyorat turizmi obyektlarini qurish va modernizatsiya qilishda nafaqat davlat byudjeti va bank kreditlari, balki xalqaro moliya institutlari, "islomiy moliya" vositalari hamda xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;

➤ DXSh shartnomalarida taraflarning huquq va majburiyatlari, investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari, daromad taqsimoti va risklarni boshqarish mexanizmlarini aniq belgilash orqali huquqiy asoslarni mustahkamlash;

➤ DXSh loyihalarini faqat diniy ziyorat obyektlarini emas, balki ularni qo'llab-quvvatlovchi transport, mehmonxona, ovqatlanish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini ham qamrab olishi kerak, natijada hududiy turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga erishiladi.

➤ Loyihalar doirasida hudud aholisining bandlik darajasini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish hamda servis xizmatlari sifatini yuksaltirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishish, shu jarayonga mahalliy aholini keng jalb etish. Loyihalar — bu ma'lum bir hududdagi ziyorat obyektlari va ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani (transport, mehmonxona, ovqatlanish, servis xizmatlari va boshqalar) rivojlantirishga qaratilgan, davlat va xususiy sektor hamkorligida ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar to'plami bo'lib, ularning maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy natijalarga erishishdir.

➤ Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi doirasida xususiy sektor vakillari tomonidan ziyorat maskanlari hududida ishlab chiqariladigan va ko'rsatiladigan barcha xizmat turlarini o'zaro integratsiyalashgan (uyg'unlashtirilgan) holda rivojlantirish, xizmatlar ko'lamini diversifikatsiya qilish va ularning sifat darajasini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali ziyoratchilar uchun kompleks infratuzilma yaratish. Ushbu yondashuv natijasida diniy-ma'rifiy, madaniy, transport-logistika, mehmonxona, ovqatlanish, savdo, hunarmandchilik va boshqa yordamchi xizmatlarning yagona ekotizimi shakllanadi. Natijada, xizmatlarning funksional uyg'unligi hamda qulaylik darajasining oshishi ziyorat maskanlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi va turistlar oqimini barqaror ravishda kengaytirishga xizmat qiladi.

➤ **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish** – DXSh loyihalariga xorijiy tajribani joriy etish, ilg'or boshqaruv modellari va marketing strategiyalarini qo'llash. O'zbekistonda Islom dini tarixida muhim o'rin tutgan, buyuk avliyo va pirlarning muborak qadamjolari mavjud bo'lib, ularning aksariyatiga asosan mahalliy ziyoratchilar tashrif buyuradi. Shu bois, mazkur muqaddas maskanlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan avliyo va pirlarning ijtimoiy kelib chiqishi, ilmiy merosi, falsafasi, karomatlari hamda tarixiy faoliyatini ilmiy manbalar asosida chuqur o'rganish va bu ma'lumotlarni global miqyosda ommalashtirish zarur. Bunday yondashuv orqali xalqaro sayyohlar orasida ilmiy asoslangan diniy-ma'rifiy qiziqish uyg'otiladi va natijada hozirgacha yetarli darajada turistik xizmatlar ko'rsatilmayotgan yoki iqtisodiy faoliyati sust bo'lgan ziyorat obyektlarini "jonlantirish"ga erishiladi. Pirovard natijada, bu jarayon:

- ✓ hududiy xizmatlar sektorining kengayishi;
- ✓ qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi;
- ✓ transport, mehmonxona, umumiy ovqatlanish va savdo tarmoqlarida xizmatlar hajmining ortishi;
- ✓ ziyorat turizmiga oid xizmatlar diversifikatsiyasi hisobiga ichki va tashqi turistik oqimning ko'payishi;
- ✓ hududiy byudjetga tushumlarning oshishi va yalpi hududiy mahsulot (YaHM)ning o'sishiga hissa qo'shishi kabi ijobiy iqtisodiy natijalarni ta'minlaydi.

Muhokamada, shuningdek, ziyorat turizmining mavsumiyligi va talab o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, DXSh asosidagi loyihalarda risklarni sug'urtalash va daromadlarni barqarorlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Shunday yondashuv, bir tomondan, xususiy investorlar uchun xavfsiz va jozibador sharoit yaratadi, ikkinchi tomondan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga erishish imkonini kengaytiradi.

O'zbekistonda ziyorat turizmi milliy turizm industriyasining strategik tarkibiy qismi bo'lib, diniy-ma'rifiy meros obyektlarini saqlash va rivojlantirish orqali nafaqat madaniy qadriyatlarni asrash, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish imkoniyatini yaratadi.

DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar nafaqat ziyorat maskanlarida zamonaviy infratuzilma yaratishga, balki transport-logistika tizimini yaxshilash, mehmonxona va servis xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirishga ham xizmat qiladi. Xorijiy davlatlar, xususan Turkiya, Saudiya Arabistoni va Malayziya tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ziyorat turizmi obyektlarida davlat va xususiy sektorning o'zaro samarali hamkorligi diniy-tarixiy joylarning jozibadorligini oshiradi va xalqaro turistlar oqimini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shuningdek, O'zbekistonning boy diniy meros obyektlari, buyuk avliyo va pirlarning qadamjolari bo'yicha xalqaro miqyosda ilmiy-axborot kampaniyalarini amalga oshirish, obyektlarga oid tarixiy-falsafiy ma'lumotlarni keng yoritish, ularni integratsiyalashgan xizmatlar tizimi orqali "jonlantirish" iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlik beradi. Bu esa hududiy xizmatlar sektorining kengayishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, hududiy byudjet tushumlarining ortishi va pirovard natijada aholining farovonligini oshirishga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

12. Методология устойчивого развития туризма в управлении туристскими территориями. <https://www.dissercat.com/content/metodologiya-ustoichivogo-razvitiya-turizma-v-upravlenii-turistskimi-territoriyami>

13. Методология устойчивого развития туризма в управлении туристскими территориями. <https://science.cfuv.ru/gosudarstvennaya-nauchnaya-attestaciya/dissertacionnye-sovety/dissertacionnye-raboty-soveta-d-900-006-15/rassoxina-tatyana-vasilevna>

14. Развитие туристских дестинаций: модели, методы, инструменты. <https://201824.selcdn.ru/elit-125/pdf/9785604474525.pdf>.

15. Uzoqov J.N. "Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmining ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va o'rni".//QAR MII "Innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali, ISSN: 2181-4732, Maxsus son, 2023 yil, dekabr, B. 136-142 (08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Milliy nashrlar. №30)

16. Jamshid Uzokov. "Government regulation and management of the development of pilgrimage tourism in uzbekistan."// Journal of Management Value & Ethics, Gwalior management academy, ISSN: 2249-9512, Jan-March 24 Vol. 14 No. 01, Sjjf 8.001 & Gif 0.626, 101-113. (08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Osiyo mamlakatlari nashrlari. №6)

17. Uzoqov J.N. "Ziyorat turizmining tarmoq sifatida shakllanish tarixi va ziyorat turizmining rivojlanish bosqichlari."// Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi, ISSN: 2091-573 X, ilmiy jurnal.- №2024-4/2 (113), B. 145-149 (08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Milliy nashrlar. №21)

18. Uzoqov J.N. "Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish"//, Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi, ISSN:2091-573 X, ilmiy jurnal.- №2024-6/2 (115), B. 236-240 (08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Milliy nashrlar. №21)

19. Uzoqov J.N. "Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish"// Buxoro "Iqtisodiyot va turizm" halqaro ilmiy va innovatsion jurnali. ISSN: 2181-2551, №3(17) 2024, B. 104-112 (OAK Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan kiritilgan)

20. Uzokov J. N. "Ziyorat turizmining rivojlanish bosqichlari hamda tarmoq sifatida shakllanish tarixi"// conference on the role and importance of science in the modern world, universalconference.us, Volume 01, Issue 04, 2024, 98-102.

21. <https://uzbekistan.travel/uz/sayyohlarning-kelishi/>

22. Ergashev R.X, Uzoqov J.N. "Ziyorat turizmi tarmog'ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari"//, Scienceproblems.uz. ilmiy-amaliy elektron jurnal, ISSN: 2181-1342, №2024-5 son, 4-jild, B. 57-62. (OAK Rayosatining 2022 yil 30 noyabrdagi 327/5-son qarori bilan kiritilgan).

## **YASHIL IQTISODIYOT, TURIZM VA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISH (Jizzax viloyati misolida)**

**Gapparova Musavvarabegim Bektosh qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston*

*Milliy universitetining Jizzax filiali 2-bosqich talabasi*

*E-mail: [musavvarabegim2007@gmail.com](mailto:musavvarabegim2007@gmail.com)*

**Gapparov Bexzod Nematillayevich,**

*Jizzax politexnika instituti kafedrasida katta o'qituvchisi*

*E-mail: [bexzodgapparov132@gmail.com](mailto:bexzodgapparov132@gmail.com)*

*ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5358-560X>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillarining Jizzax viloyatida barqaror hududiy rivojlanishga ta'siri hamda turizm sohasi orqali ushbu jarayonni jadallashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Viloyatning tabiiy resurslari, ekologik toza turizm (eko-turizm) salohiyati va mavjud infratuzilmasi asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy etish, turizmni ekologik jihatdan barqaror asosda tashkil etish va mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'llari asoslab beriladi. Tadqiqotda xorijiy tajriba va milliy strategiyalar o'rganilgan bo'lib, ularni Jizzax viloyati sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, eko-turizm, hududiy rivojlanish, Jizzax viloyati, ekologik barqarorlik, mahalliy iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, turizm infratuzilmasi, resurslardan oqilona foydalanish.

**KIRISH.** Bugungi globallashuv va tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish sharoitida dunyo hamjamiyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri - barqaror rivojlanishni ta'minlash va ekologiyaga yetarlicha e'tibor qaratishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot - iqtisodiy o'sish bilan birga tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlod uchun resurslarni asrashni nazarda tutuvchi yondashuv sifatida avj olmoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat sanoat yoki qishloq xo'jaligi, balki turizm sohasida ham o'z aksini topmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIUA.** O'zbekistonning markaziy hududlaridan biri bo'lgan Jizzax viloyati bu borada ulkan salohiyatga ega. Masalan, Zomin milliy bog'i - nafaqat mamlakat, balki mintaqadagi eng yirik va boy biologik xilma-xillikka ega hududlardan biri bo'lib, u yeko-turizmni rivojlantirish uchun tabiiy sharoit yaratadi. Shuningdek, Sanzar daryosi vodiysi va Farish tog'lari, ularning sof havosi, ko'lmaklari va hayvonot dunyosi mahalliy va xorijiy turistlar uchun jozibali manzil hisoblanadi.